



## Linguistic and cultural characteristics of allegorical devices used in a literary text

Malika RAJAPOVA<sup>1</sup>, Alijon MAMAJONOV<sup>2</sup>

Kokand State Pedagogical Institute  
Ferghana State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received February 2023

Received in revised form

15 February 2023

Accepted 15 March 2023

Available online

25 April 2023

**Keywords:**

allegory,  
artistic discourse,  
stylistic trope,  
linguistic culture.

### ABSTRACT

Allegory is a stylistic trope, which can make the artistic text and oral speech meaningful and convey the meaning to the listener and reader in a colorful way. Allegory is considered a type of movement and means revitalization. This article is about allegorical tools used in the literary text and analyzes their linguistic and cultural characteristics. Also, in the article, the linguistic and cultural analysis of the stories “Ur tukmok” and “A good story”, two similar examples of folk oral creativity of two nations, English and Uzbek culture, is made.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp158-163>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Badiiy matnda qo'llanuvchi allegorik vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

allegoriya,  
badiiy diskurs,  
stilistik trop,  
lingvokulturologiya.

Allegoriya stilistik trop bo'lib, badiiy matni, og'zaki nutqni mazmunli qilib, tinglovchi va o'quvchiga ma'noni bo'yoqdor etib yetkaza oladi. Allegoriya ko'chimning bir turi hisoblanib, jonlantirish demakdir. Ushbu maqola badiiy matnda qo'llanuvchi allegorik vositalar haqida bo'lib, ularning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada ikki millatning, ingliz va o'zbek madaniyatining ikki o'xshash xalq og'zaki ijodi namunalari “Ur to'qmoq”, “A good story” hikoyalarning lingvokulturologik tahlil qilingan.

<sup>1</sup> Lecturer, Kokand State Pedagogical Institute.

<sup>2</sup> Doctor of Philology, Professor Ferghana State University.

## Лингвокультурная характеристика аллегорических приемов, используемых в художественном тексте

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

аллегория,  
художественный дискурс,  
стилистический троп,  
лингвокультура.

Аллегория – это стилистический троп, способный наполнить художественный текст и устную речь смыслом и красочно донести его до слушателя и читателя. Аллегория считается видом движения и означает оживление. В данной статье рассматриваются аллегорические средства, используемые в художественном тексте, и анализируются их лингвокультурологические особенности. Также в статье производится лингвокультурологический анализ рассказов «Ур тукмок» и «A good story», двух сходных образцов народного устного творчества двух народов, английской и узбекской культур.

Allegoriya – ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqea, hodisa yoki buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llashdir, ya’ni noaniq bo‘lgan tushunchani (konseptni) ko‘pchilikka ma’lum narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Shuningdek, allegoriya mavhum tushuncha yoki g‘oyani aniq obraz vositasida ifodalaydi. Masalan, “bo‘ri” so‘zining – yomonlik, yovuzlik; “tulki” so‘zining – ayyorlik ifodasi uchun qo‘llanilishi allegoriyaga misol bo‘ladi. Qadim davrlardan buyon, qisqacha yetkazish mumkin bo‘lmagan mavhum tushunchalar nomi allegoriya bo‘lgan yorqin timsol shaklida tasvirlangan.

Allegoriya – yunoncha “*allegoria*” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zgacha ifodalash yoki nazarda tutish” degan ma’noni anglatadi. Allegoriya badiiy tasvir, obrazlilik turi, mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea, hodisa orqali ifodalashdir. Masalan, “to‘ti” so‘zi gapdon, “bulbul” so‘zi xushovoz yoki yaxshi qo‘shiq kuylovchi kabi ma’nolarni ifodalaydi yoki tulki-yolg‘onchi va ayyor kishi; bo‘ri-ochko‘z kishi, chumoli esa mehnatkash va sabrli insonlar qiyofasida jonlanadi. Allegoriya mavhum g‘oya va xususiyatlarni ifodalovchi va mana shu g‘oyalarga yanada aniqlik kiritib beruvchi ifoda vositasidir. Xususan, allegoriya bir vaqtning o‘zida ham siyosiy, ham axloqiy, ham falsafiy va madaniy xususiyatlardan tashkil topgan mukammal narrativ hikoyadir.

Ramzlar kabi allegoriyalar xususiy, kontekstual (kontekstdan kelib chiqadigan), madaniy va umumiy bo‘la oladi.

O‘zbek tili stilistikasida allegoriya qochiriq, kesatiq hisoblanib, unda so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslaniladi. Ya’ni matnda berilgan so‘zlarning ma’nosi asl ma’nosini yo‘qotib tag ma’no hosil qiladi. Allegorik vositalarning samarali ishlatilinishiga Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari namuna bo‘la oladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari katta hajmdagi masallardan bo‘lib, Yapaloqqush bilan Boyqush orasidagi qudachilik voseasini ifoda etadi. Hajmning kattaligi, qissa yoki hikoya kabi voqealarning bir-biriga bog‘lanib borishi, shu voqealarga bog‘lanib, masallarning va maqollarning berilishi, murakkab syujet chizig‘i va kompozitsiyaga ega bo‘lishi nuqtai nazardan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari allegorik stilistik vositasidan unumli foydalanilganini yaqqol namoyon etadi. Yozuvchining bu asari va uning tarkibidagi masallar boshqa masallardan farq qiladi va ko‘proq hind eposi “Kalila va Dimna”ga yaqin

turadi. Muhammadsharif Gulxaniy o'zining mazkur asarida o'sha davrning eng dolzarb masalalarini tanqidiy va badiiy ifodalab bergan. Feodal sinfining chirkin avj olib borishi, bu sinf xulq-atvorining tanazzuli, mamlakatning vayronligi "Zarbulmasal" asarida allegorik obrazlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Sho'ranul, Ko'rqush, Kordon va boshqa obrazlar), hajviy bo'yoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalning eng muhim estetik fazilatidir. Bu xususiyatnin yoritib berishda yozuvchi allegoriya va boshqa shu kabi stilistik troplardan unumli foydalangan.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi kuchli badiiy usullardan biri shuki, adib har bir salbiy obrazning xulq-atvorini ayamadan fosh etadi va ularni qattiq tanqid qiladi. Buning zamirida, albatta, insonlarni voqeadan xulosa chiqarishga va yaxshilikka chorlash maqsadi turadi. Masalchining xalq orasidan to'plagan "Zarbulmasal"ning asosiy qahramonlari qushlardir. Unda eng yirtqich qushlardan tortib, oddiy qushlargacha insonlar qiyofasi namoyon bo'ladi. Ba'zan yo'l-yo'lakay vaxshiy hayvonlar (maymun, tulki), uy hayvonlari (tuya, bo'taloq, eshak), hasharotlar (chayon) obrazlari ham asarda ko'zga tashlanadi. Lekin bularning har biri insonlarning xulq-atvorini, qiliqarini, xarakterini, turmush tarzini ifoda etadi. Shu bilan birga, asarda bir qator kishilarning realistik obrazlari ham gavalantirilgan. Zotan, Gulxaniy mehnatkash xalq turmushini yaxshi bilardi. U kambag'al dehqonlar, kosiblar, chorakorlar, qarollar, go'loxlar, cho'ponlar, katta yer egalari, amaldorlar, to'quvchilar, olimlar, ruhoniylar va boshqalarning hayotini, xarakterini, ichki olamini diqqat bilan o'rgandi va ularni o'z asarlari yordamida ommaga fosh etdi. Bu kuzatishlar shoirga "Zarbulmasal"da hayotiy shaxslarning satirik va tanqidiy obrazlarini yaratish va uni ommaga ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, misgar Xolboqi, po'stindo'z Yodgor bulotqi, Qo'chqor so'fi, Ashur yirtiq qassob, Umarmashifdo'z, Muxammadxo'ja mufti, Niyozcha og'aliq kabilar shular jumlasidandir. Bu obrazlar Gulxaniy asaridagi Yapaloqqush va Boyqush o'rtasidagi voqealar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, masalning kompozitsiyasini boyitish uchun xizmat qiladi. Asardagi obrazlarning deyarli barchasi yomon illatlar va badxulqlar sifatida tasvirlanadi, ular xoh hayvonlar, qushlar obrazi, xoh kishilar obrazi bo'lsin, yaramas illatlar sifatida gavalanadi. Feodallarga xos ochko'zlik, mansabparastlik, shuhratparastlik, maqtanchoqlik, asosan Boyug'li, Kordon Yapaloqqush obrazlarida namoyon etilgan bo'lsa, insonlar, hayvonlar, hasharotlar obrazlarida esa badxulqlar – kaltabinlik, befahmlik, farosatsizlik, manmanlik kabilar ifodalangan. Muallif o'z asarini turli xil obrazlar yordamida ifodalab uning asl, tag ma'nosini ichib berdi va bunda turli xil usullardan foydalandi. Allegoriya hech mubolag'asiz eng ko'p ishlatilgan stilistik trop deb aytilishi mumkin. Gulxaniy "Zarbulmasal" asaridagi obrazlar bilan turli insonlarning ichki dunyosini o'quvchiga turlicha namoyish eta oladi. shuningdek, yaxshi va yomon xulqlarni bir biridan farqlay olishiga, mantiqiy fikrlashiga, xulosa chiqarishiga kitobxonga turtki beradi va bu asar bilan didaktik tarbiya bera oladi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida allegoriya va unga yondosh bo'lgan stilistik vositalar xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan ertaklar va maqollarda ko'plab uchraydi. "Ur to'qmoq" ertagining tiliga e'tibor beradigan bo'lsak, ertakda ishtirok etadigan hayvonlar, buyumlarning jonlanishini, insonlar bilan muloqot qilishini ko'rish mumkin. Ya'ni ertakning bosh qahramonlari chol va kampirga taom keltiradigan dasturxon, ularga "ochil dasturxon, qaynar xumcha va ur to'qmoq" kabi buyumlar hadya etib yordam beradigan oqko'ngil laylaklar podshopi, chol uxlab qolganda uning sehrli buyumlarini

almashtirib oladigan boy kabi obrazlarda allegoriyaning o'ziga xos jozibasini ko'rish mumkin. Shu o'rinda aytib o'ish joizki, allegoriya va jonlantirish o'rtasida birmuncha sezilarli farqlarni ko'rish mumkin. Allegoriya kinoyali, tanqidiy o'xshatish bo'lib, uning ortida istehzo yoki tanqid mavjuddir. Jonlantirish esa allegoriyaga nisbatan keng ko'lamli bo'lib, unda kinoya bo'lmaydi. Asosan tabiatning o'ziga xos xususiyatlari va insonlarning xususiyatlari bu stilistik vosita orqali o'zaro bir-birini to'ldirib ma'no hosil qiladi. Aytish mumkinki, jonlantirishning ikki xil ko'inishi bo'lib, undan

- 1) insonga xos bo'lgan xususiyatlar bilan tabiatni tasvirlashda foydalanamiz;
- 2) tabiatga xos bo'lgan xususiyatlar bilan insonlarni tasvirlashda foydalanamiz.

“Qushlarning sho'x kuylashi”, “Bulbulning nola qilishi” “O'rmonning qishki uyquga ketishi” kabilar insonlardagi xususiyatlarini tabiat bilan hamohang ishlatayotgan bo'lsa, “itdek ochman”, “quyoshdek mehribon” kabilar tabiatga xos bo'lgan jihatlarni o'zida mujassam etadi.

“Ur to'qmoq” ertagiga nazar soladigan bo'lsak, ertakda, allegoriya va jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng ko'lamda foydalanilganini ko'rish mumkin. Masalan, laylakning tilga kirib, minnatdorchilik bildirishi, va cholning yaxshilik evaziga uni mukofotlash maqsadida hadyalar berishi saxiy va boy insonlarni tasvirlasa, laylak bergan hadyalar, ochil dasturxonning bir zumda ovqat tayyorlashi, qaynar xumchaning tilla tangalar paydo qilishi va ochko'z o'g'ri rini jazolash uchun jonlangan ur to'qmoqning xarakaterini, chaqqon ayol, mehnatkash erkak va qonun himoyachilari kabilarga ishora qiladi.

Bu asarni lingvokulturologik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, izlanish davomida ingliz xalq og'zaki ijodida ham bu ertakning mavjudligini ko'rdik. (2-ilova). Ingliz tilidagi bu ertakda va uning o'zbek tilidagi ko'inishi o'rtasida bir necha o'xshash va farqli jihatlarni uchratish mumkin. Bu o'xshashliklar va yoki aksincha farqlar asarlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rsata oladi. “Ur to'qmoq” ertagida bosh qahramonlar chol, kampir, xasis va yolg'onchi kishi va laylak bo'lsa; ertakning ingliz tili adabiyotidagi shaklida asosiy qahramonlar, kambag'al ayol va uning uch o'g'li va yolg'onchi o'g'ri kishi. Ertaklarni o'qib tahlil qilar ekanmiz, ikki millatning o'ziga xosliklarini payqaymiz. O'zbek xalqining taomlanish uchun dasturxondan foydalanishi va dasturxonga nisbatan alohida e'tibor berishini ko'ramiz. Ingliz madaniyatida esa ovqatlanish uchun asosan stoldan foydalanishini ertakning quyidagi qismlaridan topamiz:

**Tom worked very hard for one year. When the year ended, the kind man gave him a table. It looked old and dirty, but it was a magic table “say to the table, “I am hungry”, then wonderful wood will appear on it by magic” said the man, with a smile. “You are very kind” said Tom to the man and he left. He went from country to country, from city to city and he was always happy. He carried his table on his back. When he wanted food, he put the table down – in the street, by a river, under a tree. He said to the table, “Table, I am hungry” and lovely food appeared.**

Ushbu parchada ayolning to'ng'ich o'g'li Tom sehrli stolga “Stol, qornim ochdi” deb aytadi. So'ng stol ustida nozu ne'matlar paydo bo'ladi. Aslida esa stolning taom pishira olish xususiyati insonga xos bo'lib, bu ikki ertaklarning ma'nosida allegorik birliklarni uchratish mumkin. Berilgan xalq og'zaki ijodlarini bir-biriga taqqoslasak, ikki til va madaniyat o'rtasida lingvokulturologik o'xshashlik va farqlarni ko'ramiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, allegoriya stilistikaning bir sohasi bo'lib, berilgan voqealar, hodisalar va xarakterlarni tasvirlar orqali ifodalashdir. Allegoriyaga yondosh stilistik troplar metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, perifraz, mubolag'a kabilarni aytish mumkin. Stilistik maqsadda qo'llaniladigan ma'nolarning orasidagi o'zaro munosabatni quyidagi hollarga bo'lish mumkin:

- So'zlar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan munosabatga ko'ra (metafora);
- Tushunchalar o'rtasidagi yaqinlikka, bir-biriga aloqadorlikka asoslangan munosabatga ko'ra (metonimiya);
- So'zlarning to'g'ri va teskari (zid) ma'nosiga asoslangan munosabat (kinoya). [1.40]

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boboxonova L.T "Ingliz tili stilistikasi". Toshkent. "O'qituvchi" 1995. – 40-bet.
2. Allegory as a Stylistic Device in the Short Stories of Oscar Wilde Paperback – July 7, 2015 b Maaz Shehla (Author). <https://www.amazon.com/Allegory-Stylistic-Device-Short-Stories/dp/3659743844> dan yuklab olingan.
3. Ochildiyeva Kh.G., D.S. Mirzaliyeva, and D.S. Makhmudova. "The Concept of Ethical Evaluation in Russian and Uzbek". *European Journal of Research Development and Sustainability* 2.2 (2021): 67–69.
4. G'ulomovna, Ochildiyeva Hilola. "The importance of innovative educational technologies in teaching the subject of the russian language". *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 8–10.
5. Gulamovna, Ochildiyeva Khilolakhon. "The concept of ethical evaluation in russian and uzbek". *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions* 2.6 (2021): 1–5.
6. Gulamovna, Ochildiyeva Hilola. "Lexical and Phraseological Means of Expressing the Ethical Assessment of a Person in the Russian and Uzbek Languages". *JournalNX* 6.12: 257–259.
7. Odiljonovich, Hasanov Elyorjon. "The Issue Of Business Terms Used In English". *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 3075-3081.
8. Odiljonovich, Hasanov Elyorjon. "A study of adopted business terms from english into the uzbek language". *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 401–403.
9. Odiljonovich, Hasanov Elyorjon. "Some issues of business terms borrowed from english". *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277–3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 372–375.
10. G'ulomovna, Ochildiyeva Hilola. "The importance of innovative educational technologies in teaching the subject of the russian language". *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 8–10.
11. Ochildiyeva Kh.G., D.S. Mirzaliyeva, and D.S. Makhmudova. "The Concept of Ethical Evaluation in Russian and Uzbek". *European Journal of Research Development and Sustainability* 2.2 (2021): 67–69.
12. Gulamovna, Ochildiyeva Khilolakhon. "The concept of ethical evaluation in Russian and Uzbek". *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions* 2.6 (2021): 1–5.
13. Gulamovna, Ochildiyeva Hilola. "Lexical and Phraseological Means of Expressing the Ethical Assessment of a Person in the Russian and Uzbek Languages". *JournalNX* 6.12: 257–259.
14. Rajapova M. (2021). Principles of cognitive metaphor and allegory in discourse.
15. Rajapova M. (2022). Linguocultural Features of Allegorical Means Used in the Literary Text.

16. Rajapova, Malika. “Lingvoculturology and its peculiarities as new branches of contemporary linguistics”. Scienceweb academic papers collection (2021).

17. Malika, R. (2021). Effective ways of communicative language teaching ISSN: 2249-7137 – Vol. 11.

18. Ҳайдарова, Гулҳаё Аҳмадалиевна. “XX аср ўзбек ғазалларининг вазн хусусиятига доир”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.6 (2022): 241–245.

19. G‘ulomovna, Ochildiyeva Hilola. “The importance of innovative educational technologies in teaching the subject of the russian language”. Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 8–10.

20. Gulamovna, Ochildiyeva Khilolakhon. “The concept of ethical evaluation in russian and uzbek”. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions 2.6 (2021): 1–5.

21. Gulamovna, Ochildiyeva Hilola. “Lexical and Phraseological Means of Expressing the Ethical Assessment of a Person in the Russian and Uzbek Languages”. JournalNX 6.12: 257–259.